

UO‘K: 58.009

*Sharifmurodov Karamatullo Ibrohimzoda
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

NOR SHIRACH O‘SIMLIGINING AYRIM BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nor shirach o‘simligining qisqacha botanik tavsifi, biologiyasi, xususiyatlari keltirilgan. O‘simlikning urug‘ biologiyasi tajribalarda kuztilib, real va patensial urug‘ hosildorligi, 1000 dona urug‘ining massasi aniqlangan hamda tegishli xulosalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Nor shirach, pushti shirach, *Eremurus robustus*, Qizil kitob, urug‘, real urug‘ mahsuldorligi, patensial urug‘ mahsuldorligi.

*Sharifmurodov Karamatullo Ibrohimzoda
Uzbek-Finnish pedagogical institute*

SOME BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PLANT NOR SHIRACH

Abstract: This article presents a brief botanical description, biology, and properties of the Nor shirach plant. The seed biology of the plant was observed in the experiments, the real and potential seed yield, the mass of 1000 seeds were determined and relevant conclusions were drawn.

Keywords. *Eremurus robustus*, Red book, seed, actual seed yield, potential seed yield.

Kirish. Nor shirach (pushti shirach) - *Eremurus robustus* shirachdoshlar oilasiga mansub o‘simlik. Shirach turkumining o‘zbekistonda 21 turi tarqalgan bo‘lib, shundan 12 tasi O‘zbekiston respublikasining “Qizil kitob”iga kiritilgan.

Ko‘p yillik o‘t, bo‘yi 100-200 sm. Barglari keng qalami, tashqi tomonidagi barglarining eni 4-8 sm, novsimon. Gulqo‘rg‘on bargchalari pushti yoki och pushti, asosi sariq dog‘li (1-rasm). May-iyul oylarida gullab, urug‘ beradi. Tog‘ mintaqasi soz tuproqli yonbag‘irlarida o‘sadi [3,5].

Shirach-xushmanzara, dorivor, bahorda ko‘kat sifatida iste‘mol qilinadigan qimmatli yemish olinadigan yovvoyi o‘simlikdir. Shu xislatlari sabab bo‘lsa kerak uning tabiatdagi zaxiralari juda tez kamayib bormoqda. Shirach yer shari florasi ayniqsa Markaziy Osiyoning o‘ziga xos qiymatli o‘simliklar turkumidir. Uning tasmaimon tojbarlari jozibador sulton (shingil) tarzidagi to‘pguli, yulduzsimon shaklli va sariq sutsimon suyuqlikka boy ildiz sistemasi kishining e‘tiborini jalb etadi. Shirachning guli asalshira (nektar)ga boy, qurigan poyalari asalari qutilari uchun ishlatiladi, yosh barglari C darmondorisiga boy. Tarkibida C vitamini, karotim, organik kislotalari, ko‘p miqdorda eremuran polisaxarid, alkaloidlar, shirach (yelim) bo‘yoqlar va boshqa moddalar bor. Bargi xalq orasida yel haydovchi ildizi meda-ichak kasalliklarida qoplab oluvchi dori sifatida qo‘llaniladi. Barcha qismlaridan ipak, jun, paxtadan qilingan matolarni sariq rangga bo‘yaydigan bo‘yoq olinadi [2,4].

1-rasm



Metodlar. O‘simlikning fenologiyasi, o‘shishi va rivojlanishi I.N.Beydeman va boshqalar metodikasi bo‘yicha o‘rganildi. Sutkalik va mavsumiy gullash va urug‘ biologiyasini o‘rganishda Ponomoryov metodikasidan foydalanildi, o‘simlikning fitosenozda tutgan o‘rni Drudening 6 ballik shkalasi yordamida aniqlandi.

Natijalar. Urgut tumanida 2023-yilda nor shirachning urug‘ mahsuldorligini hisoblab chiqdik. Buning uchun 25 tup o‘simlik tanlab olindi. Har bir tup o‘simlikdagi hosil bo‘lgan gullar soni hisoblab chiqildi. Ochilgan gullardan nechta urug‘ shakllanishi mumkinligi aniqlandi va elektron tarozida 1000 ta urug‘ning massasi hioblab chiqildi. Shu ma’lumotlarga asoslanib 1 tup o‘simlikda qancha gr urug‘ hosil bo‘lishi mumkinligi hisoblab topildi va olingan natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

№	Birtupdagi g‘unchalar (dona)	Shundan				Hosil bo‘lgan mevalar		Bir ko‘sakdagi urug‘lar	Shundan				Bir tupdagi to‘q urug‘lar		1000 dona urug‘ og‘irligi (gr)
		ochilgan gullar (dona)	%	To‘kilib ketdi	%	dona	gulga nisbatan %		to‘q urug‘lar (dona)	%	puch urug‘lar		dona	gramm	
											dona	%			
1	315	200	64,0	80	36,0	12	7	15	11	73,3	4	26,7	100	3,5	28,3
2	379	235	62,0	144	38,0	7	2,9	13	8	61,5	5	38,5	56	2,1	27,0
3	247	186	75,3	61	24,7	11	6,0	14	10	71,4	4	28,6	110	3,4	27,0
	O‘rtacha	207	7,1	90	33	10	5,3	14	9,6	68,7	4	31,2	88,6	3,0	27,4

Jadvaldan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, nor shirach o‘simligi o‘rtacha bir tupda 315 tadan 247 tagacha g‘uncha hosil qilib, shundan 200-207 ta (71%) gul hosil qildi. Shundan 90 tasi (33%) to‘kilib ketdi. 14 ta urug‘ haosil qilib shundan patensial urug‘ mahsuldorligi 31.2 %, real urug‘ mahsuldorligi 68.7 % ni tashkil qildi. 1000 ta urug‘ning massasi o‘rtacha 27,4 gr ni tashkil etdi.

Xulosa. Nor shirach o‘simligi xushmanzara, dorivor, yem-xashak hamda vitamininga boy, muhofazaga muhtoj bo‘lgan o‘simlik hisoblanadi. 1000 dona urug‘ining massasi 27,4 gr ni tashkil etib, real urug‘ mahsuldorligi 68,7%, patensial urug‘ mahsuldorligi 27,4% ni tashkil qiladi. Demak, ushbu o‘simlik

urug'lari yordamida ko'payishi qiyin, shuning uchun o'simlikni vegetativ yo'l bilan ko'paytirish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyeva A., Xurramov O. Ziziphora tenuior o'simligining dorivorlik xususiyatlari //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 8-10.
2. M.Sanoyeva, M.Ergasheva “Shirach(eremurus)ning o'simligining bioekologik xususiyatlari” INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY CONFERENCE OF MODERN SCIENTIFIC RESEARCH 107-109-b.
3. Pratorov O., L.Shamusaliyeva “Botanika” Toshkent-2010. 241-b.
4. Qarshiboyeva N. NOR SHIRACH (E. ROBUSTUS REGEL) NING GULLASH BIOLOGIYASI //Solution of social problems in management and economy. – 2023. – T. 2. – №. 3. – С. 8-14.
5. Toxirov B. B. et al. Dorivor o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma'lumotlar //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 112-118.
6. Xurramov O. G., Islamov B. S. SAMARQAND VILOYATI SHAROITIDA GLYCYRRHIZA GLABRA L. NING BA'ZI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
7. Xurramova N.X., Mirzaliyev S.R., Juraxujayev D.D. O'RTA ZARAFSHON HAVZASI LANDSHAFTLARIGA ANTROPOGEN TA'SIR VA HAVZA LANDSHAFTLARINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI // Экономика и социум. 2023. №6-1 (109). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-zarafshon-havzasi-landshaftlariga-antropogen-ta-sir-va-havza-landshaftlarining-rivojlanish-qonuniyatleri> (дата обращения: 23.07.2024).
8. <https://www.plantarium.ru/page/view/item/14934.html>